

# TASVIRIY SAN'AT 3

Umumiy o'рта ta'lim maktablarining  
3-sinfi uchun darslik

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
nashrga tavsiya etgan*

Yangi nashr



Toshkent – 2022

UO'K 75(075.3)  
KBK 85.1ya72  
T 25

*Tuzuvchilar:*

**Rustam Xudayberganov, Tatyana Li, Barno Yunusova,  
Sarvar Farmonov, Orzu Tashmuxamedova**

*Mas'ul muharrir:*

**Asqarali Sulaymonov**

*Taqrizchilar:*

**Ziyodilla Bobomurodov** – Toshkent arxitektura-qurilish instituti tasviriy san'at kafedrasida mudiri, dotsent.

**Dilnoza Tulanova** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tasviriy san'at kafedrasida dotsenti v.b.

**Akrom Vapayev** – Toshkent viloyati Qibray tumanidagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabining tasviriy san'at fani o'qituvchisi.

**Dilnoza Mirxakimova** – Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 260-umumiy o'rta ta'lim maktabining tasviriy san'at fani o'qituvchisi.

## Shartli belgilar:



– topshiriq



– dars yakuni



– savollar



– uyga vazifa

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi  
mablag'lari hisobidan chop etildi.*

*Original maket va dizayn konsepsiyasi  
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.*

ISBN 978-9943-7813-0-6


© Respublika ta'lim markazi, 2022

# M U N D A R I J A

Kirish .....	4	<b>18-mavzu.</b> Axromatik ranglar. “Quyuncha” rasmini ishlash .....	44
<b>1-bob. GRAFIKA</b>		<b>19-mavzu.</b> Xromatik ranglar. “Baliqcha” rasmini ishlash .....	46
<b>1-mavzu.</b> Grafikada natyurmort va manzara janrlari. Format.....	8	<b>20-mavzu.</b> Sovuq ranglar. “Oqqush” rasmini ishlash .....	48
<b>2-mavzu.</b> Yo‘lsimon naqsh chizish....	10	<b>21-mavzu.</b> Iliq ranglar. “Yo‘lbars bolasi” rasmini ishlash .....	50
<b>3-mavzu.</b> Nur-soya. Hilpiragan tasma tasvirini chizish.....	12	<b>22-mavzu.</b> “Musicha” rasmini ishlash.....	52
<b>4-mavzu.</b> 2–3 xil mevadan tuzilgan natyurmort chizish .....	14	<b>23-mavzu.</b> Dekorativ qush. “Tovus” rasmini ishlash .....	54
<b>5-mavzu.</b> “Ko‘za va sarimsoqpiyoz” mavzusida natyurmort chizish .....	16	<b>24-mavzu. 3-nazorat ishi.</b> “Tabiat dunyosi” mavzusida rasm ishlash.....	56
<b>6-mavzu.</b> “Tandirnon” mavzusida natyurmort chizish .....	18	<b>25-mavzu.</b> Tabiatdagi daraxtlarning yil fasllariga qarab o‘zgarishini tasvirlash .....	58
<b>7-mavzu.</b> Qora fonda oq rang bilan natyurmort chizish.....	20	<b>26-mavzu.</b> Rang va kayfiyat. “Navro‘z bayrami” mavzusida rasm ishlash.....	60
<b>8-mavzu. 1-nazorat ishi.</b> “Piyoz” tasvirini chizish.....	22	<b>4-bob. KOMPOZITSIYA</b>	
<b>9-mavzu.</b> Rangli fonda qora rang bilan manzara chizish .....	23	<b>27-mavzu.</b> “Tog‘da bahor” mavzusida fazoviy kompozitsiya ishlash .....	64
<b>2-bob. HAYKALTAROSHLIK</b>		<b>28-mavzu.</b> “Koinotga parvoz” mavzusida kollaj usulida kompozitsiya ishlash.....	66
<b>10-mavzu.</b> Haykaltaroshlik turlari.....	26	<b>29-mavzu.</b> Statika va dinamika.....	68
<b>11-mavzu.</b> Kulol ustaxonasiga sayohat.....	28	<b>30-mavzu.</b> Ochiq va yopiq turdagi kompozitsiya ishlash.....	70
<b>12-mavzu.</b> Milliy o‘yinchoqlar haykalchalarini yasash.....	30	<b>31-mavzu.</b> Kompozitsiyadagi ritm .....	72
<b>13-mavzu.</b> Dasturxondagi noz-ne‘matlar .....	32	<b>32-mavzu. 4-nazorat ishi.</b> “Hayvonot bog‘i” mavzusida kompozitsiya ishlash.....	74
<b>14-mavzu.</b> “Ur, to‘qmoq!” ertagi asosida haykal ishlash .....	34	<b>33-mavzu.</b> “Tabiatni asrang” mavzusidagi plakat kompozitsiyasini ishlash.....	75
<b>15-mavzu. 2-nazorat ishi.</b> “Ertak qahramonlari Yangi yil archasi atrofida” mavzusida haykal ishlash.....	36	<b>34-mavzu.</b> “Tabiatni asrang” mavzu- sidagi plakat kompozitsiyasining shriftini ishlash .....	77
<b>16-mavzu.</b> “Shimoliy qutb ayiqchasi” mavzusida haykal ishlash .....	38		
<b>3-bob. RANGTASVIR</b>			
<b>17-mavzu.</b> Kamalak. Asosiy va hosila ranglar. Ranglar qorishmasi .....	42		

## KIRISH


Qadrli o'quvchilar! Siz 2-sinfda "Tasviriy san'at" darsligi orqali "Grafika", "Haykaltaroshlik", "Rangtasvir" va "Kompozitsiya" mavzulari bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarni o'rgandingiz. Grafik tasvirlar ishlash, loy va plastilindan hajmli bo'rtma va dumaloq haykallar yasash, chizilgan tasvirlarga rang berish, mavzu asosida kompozitsiya tuzish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egalladingiz. 3-sinfda ham boblar ketma-ketligida qiziqarli mavzularni o'rganish bilan birga rasm chizish va haykal ishlash, ijodiy kompozitsiyalar tuzish bo'yicha yangi ko'nikmalarni hosil qilasiz.




Anvar Mamajonov.  
M. Xudoyqulovning "Kichik masallar"  
to'plamiga illyustratsiya.



Lekim Ibragimov. "O'tmish ohangi"  
turkimidan "Issiq non" illyustratsiyasi.



Aleksandr Li. "Yoz" linogavyurasi.



Galina Li. "Xush kelibsiz" avtolitografiyasi.



# 1-bob

# GRAFIKA

**Grafika** grekcha soʻzdan olingan boʻlib, “chizaman”, “yozaman” degan maʼnolarni anglatadi. Grafikada tasvir qalam, koʻmir, rangli qalamlar, sharikli ruchkalar, tush, flomaster, boʻr va shu kabilar yordamida chiziladi.

**Grafika** – tasviriy sanʼat turi. Grafikada tasvir asosan oq-qora, shuningdek, rangli ishlanadi.






### Patxulla Xaitov (1947-yilda tug‘ilgan)

*“Hayotim davomida menga faqat yaxshi insonlar uchradi, ularning va yaqinlarimning mehrini his qilib yashayapman. Buni asarlarimda ham aks ettirishni va ulardan iliqlik ufurib turishini xohlayman”.*

Patxulla Xaitov 1947-yili Toshkent shahrida tavallud topgan. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutini (oldingi A. N. Ostrovskiy nomidagi Teatr va rassomlik instituti) tugatib, mazkur o‘quv dargohida o‘qituvchi hamda litografiya ustaxonasida o‘quv ustasi sifatida mehnat faoliyatini boshlagan. Hozir Patxulla Xaitovning ko‘p sonli asarlari O‘zbekiston Milliy banki, “Turonbank” banki, O‘zbekiston davlat san’at muzeyi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi ko‘rgazmalar direksiyasi, Qo‘qon davlat san’at muzeyi, Germaniya, Fransiya, Mo‘g‘uliston, Hindiston, Litva, Rossiya kabi davlatlarning muzeylari va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanmoqda. “Vatan ishq”i turkumidan “Shom”, “Bozor tarovati”, “Bolalik” turkumidan “Dala hovli”, “Tong”, “Ikki chinor”, “Manzara. Oqtosh”, “Bu hayot” kabi asarlarida yurtimizning o‘ziga xos tabiati, manzaralari tarannum etilgan.




*“Bolalik” turkumidan: “Toshlar bog‘i”.*




*“Bolalik” turkumidan: “Musaffo osmon ostida”.*





*“Akam armiyadan qaytdi”.*



*“Eski shahar” turkumidan: “Tandirchilar”.*



## 1-mavzu

## GRAFIKADA NATYURMORT VA MANZARA JANRLARI. FORMAT.

**Natyurmort** fransuzcha soʻz boʻlib, jonsiz tabiat degan maʼnoni anglatadi. Bu janrdan buyumlar, meva va sabzavotlar, gullar, gipsdan tayyorlangan turli predmetlar oʻziga qarab tasvirlanadi. Natyurmort chizishning oʻz qoidalari bor va ularga amal qilish zarur.

**Manzara janrida** togʻlar, oʻrmonlar, dalalar, anhor, koʻl, daryolar, koʻcha va uylar tasvirlanadi.

Rassomlar bu janr orqali tabiatga, Vatanga muhabbatni ifodalaydilar. Tabiat manzaralarini tasvirlash qadimgi Xitoy rassomlik sanʼatida paydo boʻlgan. Manzara janrida ham oʻziga xos qoidalarga tayangan holda chizish talab etiladi.

**Format** – ishlanadigan tasvir maydonining chegarasi. Eng keng tarqalgan tasvir formatlari toʻrtburchaklar (vertikal, gorizont), kvadratlardir. Vertikal toʻrtburchak formatda ishlangan tasvirlar yuqoriga intilib, ulugʻvorlik tuygʻusini beradi. Gorizont format esa murakkab, koʻp oʻlchovli kompozitsiyalar uchun qulaydir. Tinch holat ifoda etiluvchi kompozitsiyalar asosan kvadrat formatida ishlanadi.



Orzu Tashmuxamedova. “Natyurmort”.





Haydarova Nodirabegim.  
“Miniatyura”.



Sogdiana Yusupova. “Navro‘z”.



Jamshid Nishonov.  
“Manzara”.



Jamshid Nishonov.  
“Dekorativ natyurmort”.



Mashq daftariga natyurmort yoki manzara janrida ixtiyoriy formatda rasm chizing.



1. Natyurmort so‘zi qanday ma’noni bildiradi?
2. Manzara janrining o‘ziga xosligi nimada?
3. Tabiat manzarasini ishlash qayerda paydo bo‘lgan?
4. Format nima?



Ixtiyoriy formatda manzara yoki natyurmort tasvirini chizing.



## 2-mavzu


## YO'LSIMON NAQSH CHIZISH

Yo'lsimon naqsh bir necha qismlardan tashkil topadi. Bular gul, barg, novda, meva elementlari hamda yo'l ichidagi sxema yordamchi chiziqlaridan iborat. Yo'lsimon naqsh ishlashda oq qog'ozga yo'l chizilgandan keyin, u yordamchi chiziqlar bilan teng bo'laklarga bo'linadi.


Sxema yordamchi chiziqlariga elementlar ritm asosida joylashtiriladi. Yo'l ichida elementlarning takror chizilishi yo'lsimon naqshni hosil qiladi. Yo'lsimon naqsh bezaklarini uyimizdagi buyumlarda, liboslarda, me'moriy yodgorliklarning devorlarida, amaliy san'at muzeylarida ko'rishimiz mumkin.

### Yo'lsimon naqsh chizish bosqichlari


1



2




3



4







Mashq daftariga yo'lsimon naqsh chizing.



1. Yo'lsimon naqsh qanday qismlardan tashkil topadi?
2. Yo'lsimon naqsh bezaklarini qayerlarda ko'rishimiz mumkin?



Yo'lsimon naqshni rangli qalamlardan foydalanib bo'yang.




### 3-mavzu

## NUR-SOYA. HILPIRAGAN TASMA TASVIRINI CHIZISH

**Nur-soya** – borliqdagi barcha narsalarda mavjud bo‘lib, biz nur va soya yordamida tevarak atrofimizdagi barcha narsalarni hajmli shaklda ko‘ramiz. Narsalardagi nur va soya ma‘lum bir qoidalar asosida joylashadi:

- Blik – jismdagi eng yaltiragan qism (quyosh nuri tushgan joy).
- Yorug‘lik – jisimga yorug‘lik tushgan qism.
- Yarimsoya – nur va soya oralig‘idagi qism.
- Soya – jismining yorug‘lik tushmagan qismi.
- Refleks – jismining soya qismiga tushgan yorug‘likning aksi.
- Tushuvchi soya – jismining yerga yoki stolga tushgan soyasi.



Blik




Yorug‘lik




Yarimsoya



Soya



Refleks




Tushuvchi soya



## Hilpiragan tasmani grafik usulda tasvirlash bosqichlari



1



2



3



Hilpiragan tasmani grafik usulda mashq daftoriga chizing.



1. “Blik” atamasining ma’nosi nima?
2. Soya jismning qanday qismi?
3. “Yarimsoya” atamasining ma’nosi nima?



Hilpiragan tasma tasvirini grafik usulda yakunlab keling.



## 4-mavzu


### 2–3 XIL MEVADAN TUZILGAN NATYURMORT CHIZISH

Bizni o‘z mazasi va ko‘rinishi bilan quvontiradigan kuz mevalaridan biri anordir.

Anor mevalar shohi sifatida ta’riflanadi.




Anor butasining bo‘yi 6 metrgacha bo‘ladi. U may-iyul oylarida gullaydi. Mevasi mazasi va ko‘rinishiga qarab turli navlarga ajratiladi. Anor baxt va mo‘l-ko‘lchilik ramzidir.

Xurmo daraxtining bo‘yi o‘rtacha 2-3 metrgacha bo‘ladi. Xurmo daraxti O‘zbekistonning janubiy qismida aprel oyining oxiri – may oyining boshida gullaydi. Mevalari oktyabr oyida pishib yetiladi. Pishgan mevalari sarg‘ish rangda bo‘ladi, pishib o‘tganlari esa qo‘ng‘ir-qoramtir tusda bo‘ladi.





## Anor va xurmo natyurmortini chizish bosqichlari



Anor va xurmo natyurmortini mashq daftariga chizing.



1. Anor butasining bo'yi necha metrgacha bo'ladi?
2. Anor mevasi qanday ta'riflanadi?
3. Xurmo mevasining ko'rinishi qanday?



Anor va xurmo natyurmortini rangli qalamlardan foydalanib bo'yang.




## 5-mavzu

### “KO‘ZA VA SARIMSOQPIYOZ” MAVZUSIDA NATYURMORT CHIZISH





“Konstruksiya” atamasi chizilayotgan shaklning ayrim qismlarini bo‘lakchalarga ajratib, qurilmasini hosil qilishni bildiradi.

“Ko‘za va sarimsoqpiyoz” mavzusidagi natyurmortda dastlab ko‘za va sarimsoqpiyozning simmetriya va yordamchi chiziqlari, umumiy shakli chiziladi. Ko‘za va sarimsoqpiyozning fazoda joylashishini ko‘rsatish maqsadida konstruktiv qurilmasi chizib olinadi. Natyurmortdagi shakllar qurilmasining aniq nisbatlari va narsalar tasviri o‘xshagandan keyin, grafik usulda yorug‘ va soya turlari ishlanib, natyurmort tasviri hosil qilinadi.





## “Ko‘za va sarimsoqpiyoz” mavzusida natyurmort chizish bosqichlari



“Ko‘za va sarimsoqpiyoz” mavzusidagi natyurmortni mashq daftariga chizing.



1. Ko‘za va sarimsoqpiyozning fazoda joylashishini ko‘rsatish maqsadida nima chizib olinadi?
2. “Konstruksiya” atamasi chizilayotgan shaklning nimasini hosil qilishni bildiradi?



“Ko‘za va sarimsoqpiyoz” natyurmortini grafik usulda yakunlang.





## 6-mavzu




### “TANDIRNON” MAVZUSIDA NATYURMORT CHIZISH

“Tandirnon” mavzusidagi natyurmortni grafik usulda chizishda avvalo natyurmortni kuzatish kerak bo‘ladi. Bunda qog‘ozni qanday qo‘yish kerakligi aniqlab olinadi. Agar nonning eni bo‘yidan katta bo‘lsa, qog‘oz yotiq holda, agar bo‘yi enidan katta bo‘lsa, qog‘oz tik holatda qo‘yiladi. Natyurmortni nur yon tomonidan tushadigan qilib joylashtirish lozim. Har bir shakl qog‘oz yuzasiga yengil yordamchi chiziqlar bilan chizib joylashtiriladi.

Natyurmortni bosqichma-bosqich chizib, asliga o‘xshatgandan keyin grafik usulda shtrixlab yorug‘ va soya qismlari ishlanadi.



## “Tandirnon” natyurmortini chizish bosqichlari



“Tandirnon” mavzusidagi natyurmortni mashq daftaringa chizing.



1. Natyurmortni grafik usulda chizishdan oldin nima qilish kerak?
2. Agar nonning eni bo‘yidan katta bo‘lsa, qog‘oz qanday qo‘yiladi?
3. Natyurmort asliga o‘xshagandan keyin qanday vazifa bajariladi?





“Tandirnon” natyurmortini grafik usulda yakunlang.







**7-mavzu****QORA FONDA OQ RANG BILAN  
NATYURMORT CHIZISH**

Qora fonda oq rang bilan natyurmort chizish grafikada natyurmort ishlashning qiziqarli usullaridan biridir. Baʼzan kuchliroq ifodalilik uchun grafikada kontrast, yaʼni oq va qora ranglar qoʻllanadi. Qora yoki quyruq kulrang fonda oq boʻr, oq rangli qalam yoki guash bilan tasvir chiziladi. Ishni yoritilgan qismlardan boshlashingiz kerak boʻladi. Soya qismlari esa fon bilan birlashadi va shunda tasvir kontrastli, aniq, ifodali boʻlib chiqadi.





## Qora fonda oq rang bilan natyurmort chizish bosqichlari



“Qora fonda oq rang bilan natyurmort chizish” mavzusidagi rasmni mashq daftoriga chizing.



1. Grafikada natyurmort ishlashning qiziqarli usullaridan biri nima?
2. Natyurmort chizish bosqichlarini sanang.







Natyurmortni grafik usulda yakunlang.



## 8-mavzu

### 1-NAZORAT ISHI. “PIYOZ” TASVIRINI CHIZISH

Dumaloq shakldan iborat bo‘lgan “Piyoz” tasvirini chizish. Nazorat ishida piyoz natyurmorti grafika usullaridan birida bajariladi. Shaklni diqqat bilan kuzatib, qog‘ozni tik yoki yotiq holda qo‘yish belgilab olinadi. Natyurmortni chizish bosqichlari asosida tasvir qog‘oz yuzasiga yordamchi chiziqlardan foydalanib joylashtirib olinadi. Natyurmort qora flomaster, tush, rangli qalamlar bilan grafika usulida yorug‘-soya qonuniyati asosida chiziladi.



Yorug‘-soya qonuniyati asosida “Piyoz” tasvirini mashq daftariga chizing.






## 9-mavzu




# RANGLI FONDA QORA RANG BILAN MANZARA CHIZISH

Manzara tasvirini bosqichma-bosqich chizishda perspektiva qoidalariga rioya qilinadi.

Manzara ishlashda rassom avvalo tabiatdan ilhomlanib, zavq beruvchi ko‘rinishni tanlaydi. Manzara ko‘rinishini grafikaning turli usullaridan foydalanib chizish mumkin. Grafikada manzara ishlashning qiziqarli turlaridan biri rangli qog‘oz yuzasiga qora qalam konturi va shtrixlar yordamida chizish usulidir. Bu usulning birinchi bosqichida manzaraning yorug‘-soya qismlari ingichka chiziqlar bilan belgilab chiqiladi. Keyingi bosqichda qora tush yoki flomaster bilan ishlov beriladi va grafik tasvir hosil qilinadi.



## Rangli fonda qora rang bilan manzara chizish bosqichlari



Mashq daftariga “Rangli fonda qora rang bilan manzara chizish” mavzusida rasm chizing.



Manzara tasvirini bosqichma-bosqich chizishda qanday qoidalarga rioya qilinadi?



Manzara tasvirini grafik usulda yakunlang.





## 2-bob

# HAYKALTAROSHLIK

**Haykaltaroshlik** – tasviriy san’at turi bo’lib, borliqni hajmli shakllarda, uch o’lchamda tasvirlashga asoslanadi. Tasvirda asosan inson, shuningdek, hayvonlar (animalistik), tabiat (manzara) va narsalar (natyurmort) ishlanadi.

**Haykal** – arabcha soʻz boʻlib, “katta, ulugʻ shakl” ma’nosini anglatadi. Haykaltaroshlik ham xuddi rangtasvir kabi hayotiy voqea-hodisalarni turli uslub va tasvirlash texnikasi hamda xomashyolar yordamida ifodalaydi. Haykaltaroshlikda tosh, metall, gips, yogʻoch va shu kabi materiallar keng qoʻllanadi. Haykaltaroshlik asarlari kesish, yopishtirish, ulash, oʻyish, quyish orqali yaratiladi.



## 10-mavzu

## HAYKALTAROSHLIK TURLARI

**Haykaltaroshlikning 2 ta asosiy** – aylanib tomosha qilish imkonini beruvchi dumaloq hamda faqat bir tomondan ko'rishga mo'ljallangan bo'rtma (qabariq tasvir, relyef) turi mavjud.

**Relyef** – tekis yuzaga (devorga) bo'rttirib ishlangan tasvir.

**Relyef** – barelyef va gorelyef turlariga bo'linadi.



**Gorelyefda** tasvir qalinligining yarmidan ko'prog'i bo'rtib turadi.



**Barelyefda** tasvir qalinligining yarmidan kamroq qismi bo'rtib chiqqan bo'ladi.




## Bo'rtma tasvir ishlash bosqichlari

1



2



3



4



1. Haykaltaroshlikning nechta asosiy turi mavjud?
2. Relyef va barelyef nima?
3. Gorelyef nima?



Loy yoki plastilindan haykaltaroshlikning biron-bir turida haykalcha yasang.



## 11-mavzu

## KULOL USTAXONASIGA SAYOHAT

**Kulolchilik** – hunarmandchilikning loydan turli buyumlar tayyorlanadigan turi. Kulolchilikda asosiy xomashyo soz tuproqdir. Asosiy ish quroli esa kulollik charxi hisoblanadi. Usta charx yordamida turli sopol idishlar tayyorlaydi va ularga shakl beradi. Tayyorlangan sopol idishlar quritilib, xumdonda qizdiriladi. Yaxshi quritilgan idishlarga maxsus tayyorlangan ranglardan foydalanib naqshlar chiziladi, soʻng xumdonlarda yuqori haroratda quritiladi. Sirlangan idishlar esa yana bir bor xumdonda qizdiriladi.

### Kulol usta Umar Joʻraqulov (1894–1973-yillar)

Oʻzbekiston xalq rassomi, kulol Umar Joʻraqulov oʻlkamizning koʻp yillik anʼanaga ega boʻlgan kulolchilik sanʼatiga katta hissa qoʻshib, Samarqand zamonaviy kulolchilik maktabiga asos solgan.

1894-yili Samarqandda tugʻilgan Umar Joʻraqulov 300 yillik kulollar sulolasi davomchisi hisoblanadi. 1930-yillarda usta Umar Joʻraqulov kulolchilik buyumlariga naqsh chizishni boshlagan. Ijodiy faoliyati davomi-






“U. Joʻraqulov”. G. Ulko

da kulol rassom respublika va xalqaro amaliy sanʼat koʻrgazmalarida qatnashgan. Uning sopol buyumlarga, laganlarga chizgan naqshlari, bezaklari goʻzal va rangbarangligi bilan ajralib turadi.

**Plastilinografiya** – amaliy bezak sanʼatining yangi koʻrinishi. Unda har xil rangdagi plastilindan ozroq yoki koʻproq boʻrttirib hosil qilingan yarim shaklli narsalar tasviri gorizontaal yuzaga tushiriladi.



## Usta kulol bo'rtma tasvirini ishlash bosqichlari



1. Kulolchilikda asosiy xomashyo nima?
2. Kulolchilikda asosiy ish quroli nima hisoblanadi?
3. O'zbekiston xalq rassomi, kulol usta Umar Jo'raqulov qaysi kulolchilik maktabiga asos solgan?
4. Plastilinoqrafiya nima?



Loy yoki plastilindan usta kulol tasvirini yasashni yakunlang va boshqa bir ixtiyoriy kasb-hunar vakilining tasvirini yasang.



## 12-mavzu

# MILLIY O'YINCHOQLAR HAYKALCHALARINI YASASH

**Mayda plastika haykalchalari** – o'lchamlari uncha katta bo'lmagan dastgohli haykalchalardir.

Mayda plastika haykalchalari qimmatbaho tosh, loy, chinni, oyna kabi ashyolardan tayyorlanadi. Mayda plastika haykalchalari insonga zavq beradi, javon va yozuv stollarini bezab turadi.

Birgalikda qo'zichoq mayda plastika haykalchasini yasaymiz.





## Qo'zichoq haykalchasini yasash bosqichlari



1. Mayda plastika nima?
2. Mayda plastika haykalchalari qanday ashyolardan tayyorlanadi?



Boshqa biror o'yinchoq haykalchasini yasang.




**13-mavzu****DASTURXONDAGI NOZ-NE'MATLAR**

Dasturxon ovqatlanish vaqtida to'shaladigan mato bo'lib, uni turli yeguliklar bilan bezatadilar. Xalqimizda dasturxon mehmondo'stlik ramzi hisoblanadi. Dasturxon to'shalgandan keyin, eng avval non qo'yiladi. Undan keyin dasturxonga choy keltiriladi. So'ng boshqa noz-ne'matlar joylanadi.





## “Dasturxondagi noz-ne’matlar” mavzusida haykal ishlash bosqichlari



1. Xalqimizda dasturxon nimaning ramzi hisoblanadi?
2. Mavzu asosida haykal yasash bosqichlarini tushuntirib bering.



Yasagan dasturxoningizni boshqa idish va mevalar bilan to‘ldiring.



## 14-mavzu




## “UR, TO‘QMOQ!” ERTAGI ASOSIDA HAYKAL ISHLASH

“Ur, to‘qmoq!” – o‘zbek xalqining ajoyib ertagi. Chol va laylak ertakning asosiy qahramonlaridir.





## “Ur, to‘qmoq!” ertagi asosida haykal ishlash bosqichlari



1. “Ur, to‘qmoq!” qaysi xalq ertagi?
2. “Ur, to‘qmoq!” ertagining asosiy qahramonlari kim?



“Ur, to‘qmoq!” ertagi asosida haykalchalarni yakunlang.  
Boshqa biror ertak qahramonlarini yasang.



**15-mavzu**

**2-NAZORAT ISHI.**  
**“ERTAK QAHRAMONLARI YANGI YIL ARCHASI ATROFIDA” MAVZUSIDA HAYKAL ISHLASH**

**Yangi yil** – kattalar va bolalarning eng yaxshi ko‘rgan bayramlaridan biridir. Yangi yilda o‘tgan yil natijalari sarhisob qilinib, barcha bir-biriga yaxshi tilaklar aytadi.

Bu bayram bolalarning qishki ta‘tili maroqli o‘tishida ham muhim ahamiyatga ega. Uni ko‘pgina davlatlarda an‘anaviy tarzda, archa atrofida nishonlash odat tusiga kirgan. Yangi yil bayramida bolalar Qorbobo va Qorqiz tashrifini kutishadi.



**“Ertak qahramonlari Yangi yil archasi atrofida” mavzusida haykal ishlash bosqichlari**







1. Yangi yil qanday bayram hisoblanadi?
2. Mavzu asosida yasalgan haykalchalarni tahlil qiling.



Darsda ishlangan kompozitsiyani boshqa qahramonlar bilan to'ldiring.



## 16-mavzu

## “SHIMOLIY QUTB AYIQCHASI” MAVZUSIDA HAYKAL ISHLASH

**Oqayiq** – shimolda yashovchi ayiqsimonlar oilasiga mansub sut emizuvchi. Gavdasining uzunligi 2 – 2,5 m, baʼzan 3 m ga yetadi, vazni 800 kg gacha boradi. Tanasi qalin teri va oq, baʼzan kulrang tusdagi yung bilan qoplangan. Arktika hayvonot olamining asosiy vakili. Oq ayiqlarning asosiy ozuqasi baliqdir. Past haroratga yaxshi moslashgan, panjalari kuchli rivojlangan boʻlib, suvda oʻz ozuqasini bemalol tuta oladi. Dumi kalta, qalin yungi orasida deyarli sezilmaydi. Bugungi kunda oqayiqlar kamayib borayotgani uchun xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.





## “Shimoliy qutb ayiqchasi” mavzusida haykal ishlash bosqichlari




Oqayiqqlar qayerda yashaydi?



“Shimoliy qutb ayiqchasi” haykalchasini muzliklar ustiga joylab yasang.





## Choriyev Ro'zi Choriyevich (1931–2004)

Ro'zi Choriyev rangtasvir ustasi. O'zbekiston Badiiy akademiyasi faxriy akademigi.

O'zbekiston xalq rassomi Ro'zi Choriyev o'z asarlarida o'lka manzaralarini yorqin bo'yoqlarda katta mahorat bilan aks ettirgan. Uning ijodi rangtasvirga milliy ruh, urf-odatlar, mashhur insonlar obrazlari turkumini olib kirishi bilan alohida ahamiyatga ega. Uning portretlari (“Zamondoshim”, “Do'stim portreti”, “Kelin. Shohi so'zana”, “Fir'avn. Erkak portreti”, “Boysunlik qariya”, “Poshxurdlik qiz Barno”, “Sayroblik chol”, “Qish. Avtoportret”), maishiy va tarixiy mavzular-dagi (“Suhbat”, “Xumson oqshomi”, “Oltintopgan koni”, “Nay. Cho'pon bola”, “Boysun”, “Bahor. Sherobod manzarasi”, “Bog'lar”) va boshqa ko'plab asarlari mashhurdir. Ro'zi Choriyev O'zbekiston tasviriy san'atini targ'ib qilishda fidoyilik ko'rsatgan: uning tashabbusi va bevosita ishtirokida Respublika bolalar ijodiyoti markazi, viloyatlarda tasviriy san'at muzeylari tashkil qilingan. U yosh rassomlarni muntazam qo'llab-quvvatlagan. Ro'zi Choriyev asarlari respublika va xorijiy mamlakatlar muzeylarida, xususiy kolleksiyalarda saqlanmoqda.



“Ziyoda momo portreti”



“Toshkent. Bahor”



“Farg'ona vodiysida kuz”



# 3-bob

## RANGTASVIR

**Rangtasvir** – biror yuzada bo‘yoqlar vositasida bajarilgan san’at asari. Tasviriy san’atning bu turida rang eng asosiy o‘rinni egallaydi.

Rangtasvir yo‘nalishiga ko‘ra mahobatli, dastgohli va boshqa turlarga bo‘linadi. Rangtasvir yo‘nalishlarining har biri o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Musavvirlar rangtasvir vositalari ko‘magida asar yaratadilar va doim kompozitsiya imkoniyatlaridan foydalanadilar. Demak, rangtasvirda asosiy ifoda vositasi rang bo‘lib qolaveradi.




## 17-mavzu

# KAMALAK. ASOSIY VA HOSILA RANGLAR. RANGLAR QORISHMASI

Biz ko‘pincha yomg‘ir yog‘ganda osmonda hosil bo‘ladigan kamalak ranglarini ko‘rishimiz mumkin.




Kamalak ranglari qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, havorang, ko‘k hamda siyohrang bo‘ladi.

Qizil, sariq va ko‘k asosiy ranglar hisoblanadi. Asosiy ranglar qorishmasidan turli ranglarni hosil qilish mumkin. Masalan, qizil bilan sariq aralashmasidan olovrang, qizil bilan havorang aralashmasidan binafsharang, sariq bilan havorang aralashmasidan esa yashil hosil bo‘ladi.





## Ranglarni aralashtirish bosqichlari



Mashq daftariga mavzu asosida rasm ishlang.



1. Kamalak ranglari nomini ayting.
2. Asosiy ranglar qaysilar?



Mavzu asosida rasm ishlang.



18-mavzu

**AXROMATIK RANGLAR.  
“QUYONCHA” RASMINI ISHLASH**


**Axromatik** ranglar ham asosiy ranglar kabi tabiatda mavjud. Ular sirtida rang tusiga ega bo‘lmagan oq, kulrang, qora ranglardir. Axromatik ranglarda ishlangan tasvirlar ham o‘ziga xos bo‘lib, tasviriy san’atning keng imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi.






## “Quyuncha” tasvirini ishlash bosqichlari

1



2



3



4



“Quyuncha” rasmini mashq daftariga ishlang.



Axromatik ranglar qanday ranglar?



1. “Quyuncha” tasvirini axromatik ranglarda bo‘yang.
2. Ixtiyoriy axromatik ranglar bilan rasm ishlang.




## 19-mavzu

### XROMATIK RANGLAR. “BALIQCHA” RASMINI ISHLASH





Xromatik ranglar sirtida rang tusiga ega bo‘lgan ranglardir. Xromatik ranglar tarkibiga barcha iliq va sovuq ranglar kiradi.

Ushbu mavzuda xromatik ranglardan foydalangan holda “baliqcha” tasvirini ishlaymiz.





## “Baliqcha” tasvirini ishlash bosqichlari



“Baliqcha” rasmini mashq daftariga ishlang.



1. Xromatik ranglar qanday ranglar?
2. Xromatik ranglarni yana qaysi predmetlarda ko‘rish mumkin?




Xromatik ranglar yordamida “baliqcha” tasvirini bo‘yang va boshqa bir rasm ishlang.



20-mavzu




**SOVUQ RANGLAR.  
“OQQUSH” RASMINI ISHLASH**

**Sovuq ranglar** – ko‘k, havorang, yashil, ko‘k-binafsha, ko‘k-yashil va bularning birikmasidan kelib chiqqan barcha ranglar. Sovuq ranglar tasavvurimizda sovuqlik keltiruvchi narsalar – muz, qor, suv va shu kabilar tarzida namoyon bo‘ladi. “Oqqush” tasvirini ishlashda sovuq ranglarning barcha tuslaridan foydalanish mumkin. Mazkur rasmni ishlashda akvarel yoki guashdan foydalanamiz.





## “Oqqush” tasvirini ishlash bosqichlari



“Oqqush” tasvirini mashq daftariga ishlang.



Sovuq ranglar qaysilar?



“Oqqush” tasvirini sovuq ranglarning barcha tuslaridan foydalanib ishlang.



21-mavzu

**ILIQ RANGLAR. “YO‘LBARS BOLASI”  
RASMINI ISHLASH**

**Iliq ranglar** – qizil, sariq, olovrang va tarkibida shu ranglardan oz bo‘lsa-da mavjud bo‘lgan barcha ranglardir. Iliq ranglar quyosh, olov va shu kabi issiqlik beruvchi manbalarni eslatadi. “Yo‘lbars bolasi” tasvirini ishlashda iliq ranglarning barcha tuslarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu rasmni ishlashda akvarel yoki guashdan foydalanamiz.





## “Yo‘lbars bolasi” tasvirini ishlash bosqichlari

1




2



3



4



“Yo‘lbars bolasi” tasvirini mashq daftariga ishlang.



Iliq ranglar qaysilar?



“Yo‘lbars bolasi” tasvirini iliq ranglarning barcha turlari bilan bo‘yang.



22-mavzu

“MUSICHA” RASMINI ISHLASH


**Musicha** – kaptarsimonlar oilasining g‘urraklar urug‘iga mansub qush. Dumi uzun, boshqa kaptarsimonlarga nisbatan kichik. Tanasining orqa tomonidagi patlari bir xil rangda, bo‘yni orqasida qora rangli yarim halqasi bor. O‘rta Osiyoda keng tarqalgan, turarjoylar yaqinida yashaydi. O‘simliklar urug‘i, don va non uvoqlari bilan oziqlanadi.






## “Musicha” rasmini ishlash bosqichlari

1




2



3



4



“Musicha” rasmini mashq daftariga ishlang.



1. Musichaning tashqi ko‘rinishi qanday?
2. Musicha nima bilan oziqlanadi?



“Musicha” rasmini rangtasvirda ishlang.



## 23-mavzu

# DEKORATIV QUSH. “TOVUS” RASMINI ISHLASH


**Tovus** – qirg‘ovullar oilasiga mansub. Uning vatani Osiyo hisoblanadi. Tovus o‘zining yam-yashil, yelpig‘ich shaklidagi, ko‘zga o‘xshash dumi tufayli dekorativ qushlar orasida eng chiroylisi sifatida tanilgan.






## “Tovus” rasmini ishlash bosqichlari

1




2



3



4



“Tovus” rasmini mashq daftariga ishlang.



Tovus qaysi qushlar oilasiga mansub?




“Tovus” rasmini hosila ranglar bilan bo‘yang.



24-mavzu

**3-NAZORAT ISHI. “TABIAT DUNYOSI”  
MAVZUSIDA RASM ISHLASH**





Bahor faslida uygʻonayotgan tabiatni nafis ranglarda koʻrishimiz mumkin. Shu bois bahor palitrasi quyidagi yumshoq tuslardan tarkib topadi: och pushti, och jigarrang, och yashil va shu kabilar. Ranglar kontrastini keltirib chiqarish uchun pushti, qizil va och jigarrangdan ham foydalaniladi.



56



## “Tabiat dunyosi” tasvirini ishlash bosqichlari



“Tabiat dunyosi” rasmini mashq daftariga ishlang.



Sizningcha, bahor qanday fasl?



25-mavzu

**TABIATDAGI DARAXTLARNING  
YIL FASLLARIGA QARAB  
O'ZGARISHINI TASVIRLASH**


Har bir fasl rangbarangligi, o'ziga xosligi bilan bizni shod etadi. Bahorning nafis, yozning iliq-yorqin, kuzning oltin va qishning kumush ranglarida fasllarning go'zalligi aks etadi. Qish musaffolikni, bahor go'zallik va yangilanishni, yoz issiqlik va pishiqchilikni, kuz esa mo'l hosilni anglatadi.

Bu mavzuda daraxtning yil davomida rivojlanishi misolida tabiatdagi o'zgarishlarni tasvirlaymiz.



**Tabiatdagi daraxtlarning yil fasllariga qarab  
o'zgarishini tasvirlash bosqichlari**

1



2





3



4



5



Tabiatdagi daraxtlar-  
ning yil fasllariga qarab  
o'zgarish holatini mashq  
daftariga ishlang.



1. Yil fasllari nechta?
2. Yil fasllari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?



Tabiatdagi daraxtlarning yil fasllariga qarab  
o'zgarishi tasvirini yakunlang.



26-mavzu



**RANG VA KAYFIYAT.  
“NAVRO‘Z BAYRAMI” MAVZUSIDA  
RASM ISHLASH**

**Navro‘z** – tabiatning gullab-yashnashi va yangilanishi bayrami. U juda qadimiy bayram. Navro‘z arafasida yurtimizda turli sayllar, bayram tantanalari o‘tkaziladi.





## “Navro‘z bayrami” rasmini ishlash bosqichlari



“Navro‘z bayrami” mavzusida mashq daftariga rasm ishlang.




Navro‘z qanday bayram?



“Navro‘z bayrami” rasmini yakunlang.





### Galina Li (1945)

1945-yilda Qirg'iziston Respublikasining Ko'kyangak shahrida tug'ilgan. Kamolid-din Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida (oldingi Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik instituti) tahsil olgan. 1967-yildan beri bolalar mavzusida irod qiladi. 1969–1984-yillarda P. Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtida dars bergan. 100 dan ortiq kitoblarga illyustratsiyalar ishlagan.



*"Musicha bilan tulki"*



*"Ur, to'qmoq!"*



*"Pinokkio"*



*"Qora baliqcha"*



# 4-bob

## KOMPOZITSIYA

**Kompozitsiya** – asarni yaratish, tuzish va qurish ma'nolarini bildiradi. Kompozitsiya tasviriy san'atning barcha turlarida yaratiladi. Kompozitsiya grafikada qora va rangli qalamlar bilan, haykaltaroshlikda loy va plastilindan foydalanib, rangtasvirda esa turli bo'yoqlar yordamida ishlanadi.



27-mavzu




**“TOG‘DA BAHOR” MAVZUSIDA  
FAZOVIIY KOMPOZITSIYA ISHLASH**

Fazoviy kompozitsiyada tasvir oldingi, o‘rta va fon rasmlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, kompozitsiyaning oldingi rasmida katta gullagan daraxt tasvirini ko‘ramiz. Kompozitsiyaning o‘rta tasvirida esa kichikroq uylarni ko‘rishimiz mumkin. Kompozitsiyaning fonida, ya‘ni uzoqda, tog‘lar tasviri e‘tiborimizni tortadi.





## “Tog‘da bahor” fazoviy kompozitsiyasini ishlash bosqichlari



Fazoviy kompozitsiya mavzusida mashq daftariga rasm islang.



Fazoviy kompozitsiya nima?



Murakkab bo‘lmagan shahar manzarasini (masalan, deraza ortidagi manzara ko‘rinishini) tasvirlang.



28-mavzu

## “KOINOTGA PARVOZ” MAVZUSIDA KOLLAJ USULIDA KOMPOZITSIYA ISHLASH

Quyosh tizimiga Quyosh, sayyoralar, sayyoralarning tabiiy yo‘ldoshlari va boshqa koinot jismlari kiradi. Quyosh ham yulduz hisoblanadi va u Quyosh tizimining markazida joylashgan. Sayyoralar Quyosh atrofida aylanadigan ulkan jismlardir. Quyosh tizimida sakkizta sayyora bor.

Biz yashayotgan sayyora Yer deb ataladi. Yer Quyoshdan uzoqligiga ko‘ra uchinchi sayyora.

### BU QIZIQ

Nega sayyoralarning shakli kvadratga o‘xshamaydi?

Sayyoralar tortishish kuchi tufayli dumaloqdir. Bu maxsus kuch hamma narsani markazga tortadi va sharlarni hosil qiladi. Shuning uchun sayyoralar kvadrat shaklida emas.





**Kollaj** usulida ishlash jarayoni chizilgan tasvir ustiga gazeta, jurnal va shu kabilardan qirqib olingan rasm va yozuvlarni yelimlab chiqish orqali amalga oshiriladi.

Kompozitsiya ishlashda rangli qog‘oz, karton, qaychi, yelimning har qanday turidan foydalanish mumkin.





## “Koinotga parvoz” kompozitsiyasini kollaj usulida ishlash bosqichlari



“Koinotga parvoz” mavzusidagi kompozitsiyani kollaj usulida mashq daftariga ishlang.



Kollaj nima?



Kollaj usulida kompozitsiyani yakunlang.



## 29-mavzu

# STATIKA (TURG'UNLIK) VA DINAMIKA (HARAKAT)

**Dinamika** tasviriy san'atdagi harakat jarayonini anglatadi.

Masalan:

- sportchilarning musobaqada tezkor yugurishi;
- raketaning koinotga parvozi;
- ot poygasi jarayoni;
- suzayotgan sportchi va shu kabilar.


**Statika** esa tinch holat va harakatsizlikni bildiradi.

Masalan:


- kosmonavt;
- parvozga tayorlanayotgan raketa;
- uxlayotgan odam;
- bog'ga o'rnatilgan haykal va shu kabilar.

### “Raketa uchmoqda” rasmini ishlash bosqichlari


1



2



3







4





## “Kosmonavt” rasmini ishlash bosqichlari



Statika va dinamika mavzusida mashq daftariga rasm ishlang.



1. Dinamika nima?
2. Statika nima?



Statika va dinamika mavzusida ishlangan kompozitsiyasini yakunlang.




## 30-mavzu

# OCHIQ VA YOPIQ TURDAGI KOMPOZITSIYA ISHLASH

Ochiq kompozitsiyada tabiat manzarasi fonida jonivorlar yoki boshqa narsalar tasvirlanishi mumkin. Masalan, o'rmondagi ayiq, tabiat qo'ynidagi jirafa, daladagi traktor, tog'dagi burgut va shu kabilar.


Yopiq kompozitsiyada esa tasvir xona yoki binoning ichida bo'ladi. Masalan, sirk sahnasidagi sher, deraza tokchasidagi gullar, stol ustidagi ko'za va mevalar kabi.

### Ochiq kompozitsiya turida "Fil va filcha" tasvirini ishlash bosqichlari





## Yopiq kompozitsiya turida “Sirkdagi sher” tasvirini ishlash bosqichlari



Mashq daftariga ochiq va yopiq turdagi kompozitsiya ishlang.



1. Ochiq kompozitsiya turida rasm qanday ishlanadi?
2. Yopiq kompozitsiya turida rasm qanday ishlanadi?



Ochiq va yopiq turdagi kompozitsiyangizni yakunlang.





## 31-mavzu

## KOMPOZITSIYADAGI RITM

**Ritm** – elementlarning ma’lum bir ketma-ketlikda almashinishi va takrorlanishidir.


Manzara kompozitsiyasida ritm quyidagicha bo’lishi mumkin. Masalan, bir necha terak daraxtining yoki daraxtga tushayotgan quyosh nurining, ranglarning takrorlanishi. Qushlarning uchib kelib, daraxt shoxiga ketma-ket qo’nishi tasviri kompozitsiyada ritm hosil qiladi. Parrandalarning navbat bilan don cho’qishini tasvirlash ham kompozitsiyada ritm hosil qiladi.






## Parrandalar tasvirini ishlash bosqichlari


1



2



3



Mashq daftariga mavzu asosida kompozitsiya islang.



1. Ritm nima?
2. Ritmga misol keltira olasizmi?



Boshlagan kompozitsiyangizni yakunlang.







**32-mavzu**

**4-NAZORAT ISHI.**  
**“HAYVONOT BOG‘I” MAVZUSIDA**  
**KOMPOZITSIYA ISHLASH**

Toshkent hayvonot bog‘i 1924-yilda tashkil etilgan. Siz hayvonot bog‘ida turli xil noyob jonivor va qushlarni tomosha qilishingiz mumkin. Hayvonot bog‘ida ularning ko‘plab turlari mavjud.

**“Hayvonot bog‘i” tasvirini ishlash bosqichlari**



Mavzu asosidagi kompozitsiyani mashq daftariga ishlang.





## 33-mavzu

### “TABIATNI ASRANG” MAVZUSIDAGI PLAKAT KOMPOZITSIYASINI ISHLASH

**Plakat** – tasviriy san’atda tarbiyaviy-g’oyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, barchaning e’tiborini tanlangan mavzuga qaratadi.

**Eskiz** – kompozitsiyada maqbul variantni topish uchun ishlangan xomaki chizgilardir.

Plakat chizishda mavzuga xos bir nechta eskiz variantlarni chizish talab etiladi. Eskizlar orasidan ma’qul bo‘lgan variant plakat chizish uchun tanlanadi.



**Tabiatni asrang!**

## “Tabiatni asrang” mavzusidagi plakat kompozitsiyasini ishlash bosqichlari

1



2



3



4



Mavzu asosidagi kompozitsiyani mashq daftariga ishlang.



1. Plakat nima?
2. Eskiz nima?



Sinfda boshlagan kompozitsiyangizni yakunlang.






## 34-mavzu


## “TABIATNI ASRANG” MAVZUSIDAGI PLAKAT KOMPOZITSIYASINING SHRIFTINI ISHLASH

Plakatdagi soʻzlarni shrift bilan yozishda quyidagi qoidalarga rioya qiling:

- soʻzdagi harflarni sanab chiqing;
- soʻzlarni plakatning markaziga joylashtirish uchun qogʻozning oʻrtasiga nuqta qoʻying;
- deylik, soʻzdagi harflar soni oʻnta boʻlsa, qoʻyilgan nuqtaning chap tomoniga beshta, oʻng tomoniga beshta harf joylashtiriladi.

Shunda soʻzlar qogʻoz markaziga toʻgʻri joylashadi.





## TABIATNI ASRANG!



“Tabiatni asrang” mavzusidagi plakat kompozitsiyasining shriftlarini mashq daftarisiga ishleng.





Tasviriy san'at [Matn]: 3-sinfi uchun darslik / R. A. Xudayberganov [va boshq.].  
– Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 80 b

ISBN 978-9943-7813-0-6

UO'K 75(075.3)  
KBK 85.1ya72

*O'quv nashri*

**Rustam Xudayberganov, Tatyana Li, Barno Yunusova,  
Sarvar Farmonov, Orzu Tashmuxeimedova**

# Tasviriy san'at

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
3-sinfi uchun darslik*

*Rassom Umid Sulaymonov  
Muharrir Xurshidbek Ibrohimov  
Badiiy muharrir Sarvar Farmonov  
Texnik muharrir Akmal Sulaymonov  
Musahhah Orifjon Madvaliyev  
Sahifalovchi-dizayner Alimardon Aqilov*

*Darslikda Toshkent shahridagi 18-sonli BMSM  
o'qituvchi va o'quvchilarining asarlaridan foydalanildi.*

Mobil ilovasini yaratishga hissa qo'shgan ijodkorlar:  
*Azizbek Ismailov, Maxsud Saypiyev*

Bosishga 02.04.2021-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84  $\frac{1}{8}$ .  
Segoe garniturası. Kegli 14. Ofset bosma.  
Shartli bosma tabog'i 9,30. Nashriyot-hisob tabog'i 6,77.  
Adadi \_\_\_ nusxa. Buyurtma № \_\_\_.

## Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

**Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

<b>Yangi</b>	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
<b>Yaxshi</b>	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
<b>Qoniqarli</b>	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
<b>Qoniqarsiz</b>	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.